

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

MIRKAMILOV MIRAZIZ NODIR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXANALARINING
ISHLAB CHIQRISH SALOHIYATINI OSHIRISH
(“O‘ZKABEL” AJ QO‘SHMA KORXONASI MISOLIDA)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical
Sciences**

Mirkamilov Miraziz Nodir o‘g‘li

О‘zbekiston Respublikasi sanoat korxalariningishlab chiqarish salohiyatini oshirish
(“O‘ZKABEL” AJ qo‘shma korxonasi misolida).....4

Миркамилов Миразиз Нодир угли

Повышение производственного потенциала промышленных предприятий
республики узбекистан(на примере совместного предприятия АО
«УЗКАБЕЛЬ»).....26

Mirkamilov Miraziz Nodir ugli

Increasing the production potential of industrial enterprises of the Republic of
Uzbekistan (using the example of the joint venture “UZKABEL” JSC).....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGITOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

MIRKAMILOV MIRAZIZ NODIR O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXANALARINING
ISHLAB CHIQRISH SALOHIYATINI OSHIRISH
(“O‘ZKABEL” AJ QO‘SHMA KORXONASI MISOLIDA)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.I.PHD/Iqt 87 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.tdiu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Allayeva Gulchehra Jalgasovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Samatov Gaffor Allaqulovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Kodirov Abdurashid Majidovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent Arxitektura-Qurilish Instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.03.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. e-mail: tdtu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-03-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A. Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O.I. Begmullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.f.d.(PhD), dotsent

M.A. Tillyaxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosidagi global o'zgarishlar sharoitida innovatsion iqtisodiyotga o'tish sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini to'liq amalga oshirish hamda strategik rivojlantirishga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Xalqaro raqobatlashuv va integratsiya jarayonlari ta'sirida barqaror rivojlanishni ta'minlash ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni to'g'ri va aniq baholashni taqozo etmoqda. Har bir korxonada ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning takomillashtirilishi ishlab chiqarishning barqaror o'sishiga, investitsiya resurslarining samarali jalb qilinishiga, mahsulot va xizmatlarni sotishning kengayishiga imkon yaratadi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasida yuqori raqobatbardosh sanoat-ishlab chiqarish salohiyati va samarali iqtisodiy o'sish o'rtasida bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi. "Yetakchi davlatlar orasida Xitoy yetakchilik qilib, uning hissasiga jahon sanoat ishlab chiqarishining 28,4 foizi, AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga 15 foizi, Hindistonga 3 foizi to'g'ri keladi"¹. Bu boradagi keskin raqobat jahon mamlakatlari o'rtasida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish masalasining dolzarbligini oshirmoqda.

Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishi va yanada rivojlanishi, barcha mavjud resurslardan oqilona foydalanish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishni tashkil etishni takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirishga innovatsion yondashuvlarni shakllantirish, yetakchi sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyati elementlari tuzilishini takomillashtirish, ular o'rtasidagi yangi tashkiliy-iqtisodiy bog'liqliklarni aniqlash, salohiyat elementlaridan foydalanish samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish salohiyati o'sishini prognoz qilish, ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishning strategik istiqbollari belgilab berish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida sanoat-ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish va uni sanoat korxonasining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatiga jalb etish strategiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sanoat korxonalarida mavjud iqtisodiy resurslardan foydalanish hamda ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishning tegishli tizimi va mexanizmini shakllantirish, yetakchi tarmoq va soha korxonalarining to'plangan ishlab chiqarish salohiyatini to'g'ri va aniq baholash bu boradagi muhim vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari zamonaviy rivojlanishiga muvofiq ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va sanoat korxonalarida resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha yangi siyosat vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish

¹ <http://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/global/Documents/Manufacturing/gx-global-mfg-competitiveness-index-2021.pdf>

salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning iterativ mexanizmini ishlab chiqish, ko'p omilli ekonometrik model asosida sanoat korxonalarining qisqa va uzoq muddatli istiqbolda ishlab chiqarish salohiyatini baholashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 13-dekabrda PF-5598-son "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat haqida axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 24-noyabrda PF-5583-son "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 7-fevralda PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 21-sentyabrda PF-5544-son "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2015-yil 4-martda PF-4707-son "2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-fevralda PQ-2772-son "2017-2021-yillarda elektrotexnika sanoati boshqaruvini jadal rivojlantirish va diversifikatsiyalashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish masalalari yuzasidan R.S.Kaplan, D.P.Norton, M.L.Jorj, J.Maksi, D.Roulands, M.Prays, D.R.Spitser kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlarini alohida qayd etish mumkin².

Shuningdek, korxonalarining sanoat-ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan MDH olimlaridan L.I.Abalkin, G.Birman, M.Bromvich, L.Jukov, M.V.Kudina, R.Yu.Simonov, T.G.Xramtsova kabilarning tadqiqotlari ham ahamiyatga molik hisoblanadi³.

²Kaplan R.S, Norton D.P. Alignment: Using the Balanced Scorecard to Create Corporate Synergies. Harvard Business Review Press, 2006. – 320 p.; George M.L. et al. The Lean Six Sigma Pocket Toolbook: A Quick Reference Guide to 100 Tools for Improving Quality and Speed / M.L. George, J. Maxey, D. Rowlands, M. Price. McGraw-Hill Education, 1st ed., 2004. – 225 p.; Spitzer D.R. Transforming Performance Measurement: Rethinking the Way We Measure and Drive Organizational Success. АМАСОМ, 2007. – 304 p.;

³Абалкин Л.И. Конечные народно-хозяйственные результаты. Сущность, показатели, пути повышения. Москва: Экономика, 1978. - 151 с.; Бирман Г. Капиталовложения: экономический анализ инвестиционных проектов Текст.: [пер. с англ.]. - М.: Юнити-Дана, 2003. — 631 с.; Бромвич М. Анализ экономической эффективности капиталовложений: пер с англ.–М.:1996-432с.; Жуков Л. Финансово-экономический анализ в методике оценки эффективности инвестиций. Инвестиции в России. 2004. - №10.-С. 34-39.; Кудина М.И. Формирование стоимости компании: теоретические и методические аспекты // Диссертация доктора экономических наук.-Москва: МГУ им. М.В.Ломоносова, 2010-394с.; Симонов Р.Ю. Стоимостная оценка

O‘zbekiston sharoitida sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, innovatsion infratuzilmani takomillashtirishda mahsulot sifatini oshirish muammolari respublika iqtisodchi-olimlaridan S.S.G‘ulomov, I.I.Iskandarov, M.A.Ikramov, G.A.Samatov, T.Sh.Shodiyev, B.T.Salimov, M.A.Mahkamova, M.R.Boltabayev, G.J.Allayeva, Sh.N.Muratova, B.B.Berkinov va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan⁴.

Biroq, yuqorida aytib o‘tilgan olimlar va mutaxassislarning ilmiy ishlarida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari yetarlicha o‘rganilmagan. Katta ishlab chiqarish quvvatlari, noyob uskunalar va mutaxassislarning mavjudligi raqobatning kuchayishi bilan birgalikda elektrotexnika kompleksi korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatidan to‘liq foydalanmayotganidan dalolat beradi. Bu savdo hajmining pasayishi, mehnat jamoalari sonining qisqarishida namoyon bo‘lib, ko‘plab korxonalarining bozor pozitsiyalari yomonlashishiga va inqiroz hodisalarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, elektrotexnika kompleksi korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishni baholash uchun yangi yondashuv talab etiladi.

Uni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun elektrotexnika kompleksi korxonasining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish kompleks tizimini ishlab chiqish zarurati ushbu dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-2-59 “Yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarida innovatsion klasterlarni shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi elektrotexnika kompleksi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

экономического потенциала строительного предприятия: подходы и методы Текст.// Экономический анализ: теория и практика. Москва, 2007. - №2-С. 56-62.; Храмова Т.Г. Методология исследования социально-экономического потенциала потребительской кооперации.–Новосибирск,2002.-374с.

⁴Гулямов С.С., Махмудов Н.М., Терехов Л.Л. Системный анализ эффективности производства в рыночных условиях.– Т.: Мехнат., 1992.-163с.;Искандеров И.И. Проблемы повышения качества продукции в лёгкой промышленности Узбекистана.- Ташкент: Фан, 1973.-192 с.; Гуломов С.С., Алимов Р.Х., Салимов Б.Т. Микроиктисодиёт. Олий ўқув юртлари учун дарслик. -Т.: Шарк, 2001. – 320 б.; Махкамova М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дисс.док. экон. наук. – Т.: ТГТУ, 2004.–291с.; Икрамов М.А. Проблемы становления рынка образовательных услуг в Республики Узбекистан //Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития. Материалы международной научно-практической конференции.–Т., ТГЭУ, 2018. – 3. – С.167–171.; Саматов Г.А. и др. Инновационное развитие автомобильного транспорта. – Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. – 256 с.; Аллаева Г.Ж. Эффективное развитие предприятий топливно-энергетического комплекса Республики Узбекистан., автореферат дисс. докт. философии, Т.: 2018г.; Muratova Sh.N. Scientific concept of economic and environmental development of industrial sectors in ensuring the safety of products. // European Science Review. – 2021. - №1-2. – P.59-63. (Global impact factor: 1.36). Ходиев Б.Ю., Беркинов Б.Б., Кравченко А.Н. Бизнес кийматини баҳолаш Ўқув кўлланма /И.ф.д.,проф Б.Ю.Ходиев тахрири остида.-Тошкент: Фан, 2006.-228б.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy toifa sifatida korxonaning ishlab chiqarish salohiyati tushunchasining mohiyatini ochib berish va aniqlashtirish;

elektrotexnika sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati elementlarining strukturasi va tarkibini aniqlash;

elektrotexnika korxonalarini ishlab chiqarish salohiyatining asosiy tarkibiy qismlaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimini asoslab berish;

mavjud yondashuvlarni tahlil qilish asosida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni kompleksli baholash uslubiyatini ishlab chiqish;

“O‘zkabel” AJ ishlab chiqarish salohiyatini oshirishning turli omillari o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish asosida qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish salohiyati o‘shirishini prognoz qilishning ko‘p omilli ekonometrik modelini ishlab chiqish;

elektrotexnika kompleksi korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini taklif etish.

Tadqiqotning obyektilektrotexnika kompleksi korxonalarining, shu jumladan, “O‘zkabel” AJ qo‘shma korxonasining sanoatishlab chiqarish salohiyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti elektrotexnika sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, monografik tadqiqotlar, statistik kuzatish, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik, qiyosiy va korrelyatsiya-regressiya tahlili usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“O‘zkabel” AJ ishlab chiqarish samaradorligini yordamchi ishlab chiqarish va ta'minotni moliyalashtirishning mutanosibligiga ko‘ra oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslangan;

ishlab chiqarish salohiyati darajasini va undan elektrotexnika sanoati korxonalarida foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi asosida tashkiliy-huquqiy shaklni rivojlantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlash yondashuvi taklif etilgan;

umumiy salohiyatning alohida tarkibiy qismlari kattaligini, ularning salmoq (vazn) qiymatlari va ishlab chiqarish faoliyatida ehtimoliy risk darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqarish salohiyatining prognoz qilinadigan rivojlanish darajasiga kompleks yondashuv nuqtayi nazaridan taklif qilingan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning iterativ mexanizmi taklif qilingan;

“O‘zkabel” AJning 2025-yilgacha ishlab chiqarish quvvatlaridan samaraliroq foydalanish va mahsulot nomenklaturasini kengaytirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ishlab chiqarish salohiyati darajasini va undan elektrotexnika sanoati korxonalarida foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi asoslab berilgan;

umumiy salohiyatning alohida tarkibiy qismlari kattaligini, ularning salmoq (vazn) qiymatlari va ishlab chiqarish faoliyatida ehtimoliy risk darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqarish salohiyatining prognoz qilinadigan rivojlanish darajasiga kompleks yondashuv nuqtayi nazaridan taklif qilingan, ularni "O'zkabel" AJ korxonasida amalda qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan;

elektrotexnika sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni kompleksli baholash amalga oshirildi va uni normal, inqiroz va inqirozdan keyingi sharoitlarda rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarning ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning amaliy jihatdan tekshirilganligi, ularning bajarilishi va natijalari tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy ahamiyatdagi xulosa va takliflardan elektrotexnika tarmoqlari korxonalarining raqobatli ustunliklarini ta'minlash uchun ishlab chiqarish salohiyatining nazariy-metodologik asoslari va konseptual xususiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligini baholash prinsiplarni aniqlash hamda uning modellari, vositalari, mexanizmlari va usullarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishining asosiy amaliy tavsifdagi ishlanmalari va materiallaridan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda, elektrotexnika sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini asoslab berishda, ushbu korxonalarining sanoat-ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy jihatlarini shakllantirish va amalga oshirishda, shuningdek, tarmoq oliy ta'lim muassasalarining sanoat korxonalari samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va ta'lim faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektrotexnika kompleksi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

"O'zkabel" AJ ishlab chiqarish samaradorligini yordamchi ishlab chiqarish va ta'minotni moliyalashtirishning mutanosibligiga ko'ra oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklifdan "O'zkabel" AJ QKn istiqbolda rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan ("UZELTEXSANOAT" Uyushmasining 2024-yil 5-fevraldagi № 04-3/160-son ma'lumotnomasiva "O'zkabel" AJ QKn 2024-yil 29-yanvardagi №1-53-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida

“O‘zkabel” AJ qo‘shma korxonasi 2021-yilning birinchi yarim yilligida yordamchi ishlab chiqarish va ta‘minotni moliyalashtirishning mutanosibligiga erishish hisobiga 125 million so‘m tejab qolinib, ichki investitsiyalar imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilgan;

ishlab chiqarish salohiyati darajasini va undan elektrotexnika sanoati korxonalarida foydalanish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi asosida tashkiliy-huquqiy shaklni rivojlantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlash yondashuvi “O‘zkabel” AJ QKn istiqbolda rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (“UZELTEXSANOAT” Uyushmasining 2024-yil 5-fevraldagi № 04-3/160-son ma‘lumotnomasi va “O‘zkabel” AJ QKning 2024-yil 29-yanvardagi №1-53-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi rivojlanish zaxiralarini aniqlash va asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishga ko‘ra 2020-yilning ikkinchi yarmida 2 milliard so‘m qo‘shimcha foyda olingan;

umumiy salohiyatning alohida tarkibiy qismlari kattaligini, ularning salmoq (vazn) qiymatlari va ishlab chiqarish faoliyatida ehtimoliy risk darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqarish salohiyatining prognoz qilinadigan rivojlanish darajasiga kompleks yondashuv nuqtayi nazaridan taklif qilingan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning iterativ mexanizmi “O‘zkabel” AJ QK faoliyatiga joriy qilingan (“UZELTEXSANOAT” Uyushmasining 2024-yil 5-fevraldagi № 04-3/160-son ma‘lumotnomasi va “O‘zkabel” AJ QKning 2024-yil 29-yanvardagi №1-53-son ma‘lumotnomasi). Taklifning joriy etilishi natijasida “O‘zkabel” AJ QKda texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda korxonada ishlab chiqarish faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning iteratsion mexanizmini joriy qilish 2021-yilning birinchi yarim yilligida ishlab chiqarish hajmining 0,8 % o‘shishi hisobiga qo‘shimcha 127 mln. so‘m foyda olishga imkon bergan;

“O‘zkabel” AJning 2025-yilgacha ishlab chiqarish quvvatlaridan samaraliroq foydalanish va mahsulot nomenklaturasini kengaytirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning prognoz ko‘rsatkichlaridan “O‘zkabel” AJ QKning qisqa va o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (“UZELTEXSANOAT” Uyushmasining 2024-yil 5-fevraldagi № 04-3/160-son ma‘lumotnomasi va “O‘zkabel” AJ QKning 2024-yil 29-yanvardagi №1-53-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni kompleksli baholash, shuningdek, “O‘zkabel” AJ ishlab chiqarish salohiyatining qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda o‘shishi asosiy prognoz ko‘rsatkichlarini hisobga olish hamda normal, inqiroz va inqirozdan keyingi sharoitlarda korxonani rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish orqali “O‘zkabel” AJ mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni 25 % ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 6 tasi mahalliy jurnallarda, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 10 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 164 betdan iborat.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari: holati, tendensiyalar, islohot qilinishi”** deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalarida resurslar turlari va xususiyatlari, ishlab chiqarish faoliyati subyektlari, ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirish va oshirish usullarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini rag'batlantirishga ta'sir qiluvchi omillar va ularning tasnifi, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini rag'batlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va baholash usullari tadqiq etilgan. Sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyati tushunchasi va mohiyati aniqlashtirilgan, uning strukturasi ko'rib chiqilgan, sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan, ishlab chiqarish salohiyatining sanoat korxonasi faoliyatidagi roli ochib berilgan va o'rni belgilangan.

Iqtisodiy adabiyotlarda sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyati tushunchasi va mohiyatini talqin qilishda bir nechta yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mos ravishda uning chegaralari mavhumligi va muhokama qilinishiga olib keladi, tegishli ravishda, sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyati strukturasi masalasi ochiq qolmoqda. Korxonaning faoliyati va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha resurslarni korxonaning ishlab chiqarish salohiyatining elementlari sifatida ko'rib chiqish mumkinligi umumlashtirilgan.

Muallif korxonaning ishlab chiqarish strukturasi ma'lum bir resurslar yig'indisi va ularning ishlab chiqarish jarayoni davomida sanoat korxonasi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining belgilangan maqsadlariga erishishga qaratilgan muayyan natijalarga aylanish qobiliyati tashkil qiladi, degan fikrga qo'shiladi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat korxonasiining faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining roli⁵

Sanoat korxonasiining ishlab chiqarish salohiyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy ishlab chiqarish fondlari (AICHF), ishlab chiqarish texnologiyalari, asosiy sanoat-ishlab chiqarish personali, axborot resurslari.

Dissertatsiya ishida o‘rganilayotgan konsepsiyaga quyidagi aniqlik kiritish taklif etiladi: sanoat korxonasiining ishlab chiqarish salohiyati deganda korxonada mavjud bo‘lgan moddiy-texnik, mehnat va axborot resurslaridan samarali foydalanish orqali belgilangan maqsadlarga erishish uchun samarali ishlab chiqarish faoliyatini ta‘minlash salohiyati tushuniladi.


Mamlakat iqtisodiyotida sanoat korxonalarining ahamiyati ortib borayotgan, resurslar cheklangan holda ulardan oqilona foydalanishning roli faollashtirilgan bir sharoitda, ishlab chiqarish imkoniyatlarini, shuningdek, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatining tarkibi va xususiyatlarini obyektiv va ishonchli baholash korxonalar faoliyatini boshqarish va uning samaradorligini ta‘minlash jarayonida qarorlar qabul qilish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish salohiyati, boshqa har qanday dinamikali tizim kabi, boshqaruvga muhtojdir. Sanoat korxonasiining ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishni tashkil qilish deganda muallif tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish uchun samarali ishlab chiqarish faoliyatini ta‘minlash bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonida korxonada mavjud bo‘lgan moddiy-texnik, mehnat va axborot resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha kompaniya boshqaruv xodimlarining harakatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar (boshqaruv harakatlari) yig‘indisi tushuniladi.

Ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish jarayonining mohiyati boshqaruv obyektlari va subyektlarining o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Ushbu o‘zaro bog‘liqlik mexanizmining uzluksiz ishlashi uchun uni tashkil etish quyidagi nazariy va uslubiy asoslarga asoslanishi kerak (2-rasm). Mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarini umumlashtirish, shuningdek, amaliy tadqiqotlar borasidagi shaxsiy tajribalar sanoat korxonasiining ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishning asosiy ilmiy yondashuvlari, usullari, tamoyillari va funksiyalarini aniqlashga, boshqaruv qarorlari qabul qilish va amalga oshirish texnologiyasini

⁵Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ko‘rib chiqishga, ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishning axborot ta‘minoti mohiyatini ochib berishga imkon yaratadi. Ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishni uning nazariy-metodologik asoslari elementlarining o‘zaro aloqalari prizmasi orqali ko‘rib chiqish ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish jarayonida boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslilikini va ularning samaradorligini oshiradi, bu esa ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi va sanoat korxonasi samaradorligini oshirishga bevosita ta‘sir qiladi.



2-rasm. Ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish jarayonining mohiyati⁶

Korxonalar holatini modellashtirish bozor muhitining noaniqligi va dinamikasi sharoitida boshqaruvning asosiy va eng kuchli vositalaridan biridir. To‘g‘ri modellashtirish muhim omillar o‘rtasidagi miqdoriy munosabatlar va bog‘liqliklarni o‘rnatishga, boshqaruv qarorlarining oqibatlarini va korxonaning muhim parametrlaridagi o‘zgarishlarni hisoblashga imkon beradi. Bunday modellar boshqaruv qarorining iqtisodiy narxi va moliyaviy oqibatlarini tezda aniqlash va baholash imkonini beradi.

Shu munosabat bilan, dissertatsiyada muallif tomonidan sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish asosida samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy modeli taklif qilingan (3-rasm). Sanoat korxonasi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi bozor sharoitida, qoidaga ko‘ra, mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan olinadigan foydani ko‘paytirish va uni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishdan iborat bo‘lgan maqsadlarga erishishdir. Bunga qiymati ishlab chiqarish salohiyati elementlarining holati va rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan bir qator bilvosita ko‘rsatkichlarni o‘zgartirish orqali erishish mumkin.

Sanoat korxonasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari qiymatlarini yaxshilash, birinchi navbatda, ishlab chiqarish salohiyati elementlarini rivojlantirish va ulardan

⁶Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish zaxiralarini aniqlash asosida o‘ringa ega bo‘lishi mumkin. Ishlab chiqarish salohiyatining o‘ziga xosligi shundaki, uning elementlari barcha turdagi zaxiralarga ega bo‘lib, ulardan foydalangan holda sanoat korxonasi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga erishish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Elektrotexnika sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatining samaradorligini baholash va sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishini tahlil qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida “O‘zkabel” AJ qo‘shma korxonasining bugungi holati o‘rganilib, tahlil qilingan. “O‘zkabel” AJ QK kabel va sim mahsulotlarining har xil turlari: signalizatsiya va blokirovka kabellari, nazorat va montaj kabellari, telefon aloqa kabellari, 1 kV gacha kuchlanishda statsionar quvvat o‘tkazish elektr kabellari, SHVVP, SHVD, SHVP birlashtirish simlari, chulg‘am simlari, quvvat uzatish simlari, birlashtirish simlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishda katta tajriba to‘plagan.

Shuningdek, so‘nggi o‘n yillikda kompaniya ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirib, mahsulot turlarini sezilarli darajada kengaytirdi, xususan: lak-bo‘yoq mahsulotlari, qurilish kimyoviy moddalari, suvga asoslangan bo‘yoqlar va boshqa turdagi mahsulotlar. Korxonada malakali muhandis-texnik xodimlar, barcha faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ishchilar va keng turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlash uchun yetarli ishlab chiqarish quvvatlari mavjud.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning deyarli barcha assortimenti yuqori talabga ega bo‘lib, bu “O‘zkabel” AJ qo‘shma korxonasiga erishilgan ishlab chiqarish sur‘atlarini saqlab qolish, barqaror sifat, mahsulotlarni qat‘iy yetkazib berish muddatlarini ta‘minlash imkonini beradi.

1-jadval

Mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlar⁷

Nomi	Kutilayotgan natija
Doimiy asosda kompaniya mahsulotlarining keng va samarali reklamasini ta‘minlash	Sotuv bozorini saqlash va kengaytirish, yangi iste‘molchilar jalb qilish
Mahsulot sertifikatlanishini ta‘minlash	Sifatni oshirish
Mahsulot sifatini doimiy ravishda takomillashtirish, dizayn, qadoqlash va boshqalarni yaxshilash	Mahsulotning iste‘mol xususiyatlarini oshirish
Asosiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolgan holda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish dasturini amalga oshirish	Sotish narxida raqobatbardoshlikni oshirish
Ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish, texnik qayta jihozlash, rekonstruksiya qilish, yangi texnologiyalar va mahsulotlarni joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish	Mahsulot sifatini oshirish, nomenklaturani kengaytirish, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish

⁷Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Muallif korxonadan ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlarini monitoringini olib bordi, shuningdek, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini o'rgandi. Ushbu tadqiqotlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni taklif qilish imkonini berdi (1-jadval).

2021–2022-yillarda jami investitsiyalar 2400 ming AQSh dollarini tashkil qilishi (2-jadval), jumladan, 2000 ming AQSh dollari yong'in xavfsizligi xususiyatlari yaxshilangan, galogensiz polimer materialli qobiq va izolyatsiya bilan 0,6-1 kV kuchlanishli yangi quvvat uzatish kabellari ishlab chiqarish bo'yicha sex tashkil qilishga yo'naltirilishi kutilgan edi.


2-jadval

2022–2023-yillarga mo'ljallangan texnik qayta jihozlash, rekonstruksiya qilish, yangi texnologiyalar va mahsulotlarni joriy etish chora-tadbirlari bo'yicha xarajatlar prognozi hamda ularni moliyalashtirish manbalari⁸

Chora-tadbirlar nomi	O'Ich.birl.	Summa
1. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va qayta jihozlash chora-tadbirlari	ming AQShdoll.	2 000
Milliy valyutada hisoblaganda (kurs 1 AQSh dollari - 10 400 so'm)	ming so'm	20 800 000
Jumladan: uskunalarni ishlab chiqarish va yetkazib berish	ming AQShdoll.	
Milliy valyutada hisoblaganda (kurs 1 AQSh dollari - 10 400 so'm)	ming so'm	
Qurilish-montaj ishlari (500 ming doll)	ming so'm	5 200 000
2.Ehtiyot qismlar, sarf materiallari, uskunalar sotib olish	ming AQShdoll.	400
Milliy valyutada hisoblaganda (kurs 1 AQSh dollari - 10 400 so'm)	ming so'm	4 160 000
3.Joriy qilinayotgan mahsulotlar uchun texnik shartlar va ish hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha tadbirlar	ming so'm	35 000
Jami xarajatlar	ming so'm	30 195 000
Moliyalashtirish manbalari:		
• valyuta mablag'lari		
• bank kreditlari	ming AQShdoll.	2000
• o'z mablag'lari	ming AQShdoll.	400
• milliy valyutadagi o'z mablag'lari	ming so'm	5 235 000

Elektrotexnika sohasidagi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish sohasidagi tadqiqotlar sanoat korxonasi uchun ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish asosida uning ish faoliyatini yaxshilashning tashkiliy-iqtisodiy modelini ishlab chiqishga imkon berdi (3-rasm).


⁸Muallif tomonidan "O'zkabel" AJ 2018–2021-yillar uchun hisobot ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.



3-rasm. "O'zbekel" AJ ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish asosida uning faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy modeli⁹

⁹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sanoat korxonasi faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichi bozor sharoitida, qoidaga ko'ra, mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan olinadigan foydani ko'paytirish va uni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishdan iborat bo'lgan maqsadlarga erishishdir. Bunga qiymatlari bevosita ishlab chiqarish salohiyatining rivojlanish holati va darajasiga bog'liq bo'lgan bir qator bilvosita ko'rsatkichlarni o'zgartirish orqali erishish mumkin.



4-rasm. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va rivojlantirish uchun zaxiralarni aniqlash uslubiyati¹⁰

Sanoat korxonasi faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari qiymatlarini yaxshilash, birinchi navbatda, ishlab chiqarish salohiyati elementlarini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish faoliyati

¹⁰Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlash asosida o‘ringa ega bo‘lishi mumkin. Ishlab chiqarish salohiyatining o‘ziga xosligi shundaki, uning elementlari barcha turdagi zaxiralarga ega bo‘lib, ulardan foydalangan holda sanoat korxonasi faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshirishga erishish mumkin.

Ishda mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish zaxiralarini hisoblash va shunga mos ravishda quyidagi tadbirlar vositasida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va rivojlanish zaxiralarini aniqlash hisobiga sanoat korxonasi faoliyati samaradorligini oshirishning matematik modellari keltirilgan (4-rasm):

1. Yangi uskunalarni kiritish;
2. Uskunalarining ishsiz turib qolish vaqtini qisqartirish;
3. Uskunalar ishlab chiqarishni ko‘paytirish.

Mahsulot ishlab chiqarishni oshirish zaxiralarini hisoblab chiqishning yakuniy bosqichi fond qaytimining o‘shish zaxiralarini hisoblashdan iborat:

$$Z \uparrow FQ = \frac{MICH_F + \sum_{i=1}^n Z \uparrow MICH_i}{Q_{AICHF_F} + Q_{AICHF_q} - P \downarrow Q_{AICHF}} - \frac{MICH_F}{Q_{AICHF_F}},$$

bu yerda:

$Z \uparrow FQ$ - mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi hisobiga fond qaytimining o‘shish zaxirasi;

$Z \uparrow MICH_i$ - AICHF rivojlantirish i omili hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish zaxirasi;

$MICH_F$ - hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish amaldagi hajmi;

Q_{AICHF_F} - hisobot davrida AICHF amaldagi o‘rtacha hajmi;

Q_{AICHF_q} - mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish zaxiralarini o‘zlashtirish uchun kerak bo‘ladigan AICHF qo‘shimcha miqdori;

$P \downarrow Q_{AICHF}$ - sotish, ijaraga berish, konservatsiya va hisobdan chiqarish hisobiga AICHFni qisqartirish uchun zaxira.

(1) formulada mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish uchun zaxiralar o‘shishi umumiy omil ko‘rsatkichining mazmunini ochib, biz aniqlangan AICHF zaxiralarining butun to‘plami bo‘yicha fond qaytimining o‘shishi uchun zaxiralarni hisoblash uchun (2) formulaga ega bo‘lamiz:

$$Z \uparrow FO_{AICF} = \frac{B\Pi_{\Phi} + \frac{\sum_{i=1}^n Z \uparrow MICH_i}{Z \uparrow MICH_{Q_{AICHF}} + Z \uparrow MICH_{\Pi_{DH}} + P \uparrow k_{CM} + Z \uparrow MICH_{\Pi_{CM}} + M \uparrow MICH_{Bq}}}{Q_{AICHF} + Q_{AICHF_{DCN}} - Z \downarrow Q_{AICHF}} - \frac{MICH_F}{Q_{AICHF}},$$

$Z \uparrow FO_{AICF}$ —

AICHF oshirishvaya’ni uskunalar joriyetish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish zaxirasi;

$Z \uparrow MICH_i$ — uskunalarining kun bo‘yi ishsiz turib qolishini qisqartirish hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirish zaxirasi;

$Z \uparrow MICH_{Q_{AICHF}}$ — smena koeffitsiyentini oshirish orqali ishlab chiqarishni ko‘paytirish zaxirasi;

$Z \uparrow MICH_{\Pi_{DH}}$ — smenada ishsiz turib qolishni qisqartirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish zaxirasi;

$Z \uparrow MICH_{\Pi_{CM}}$ – o‘rtacha soatlik ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish zaxirasi.

“O‘zkabel” AJ da ushbu uslubiyatning joriy etilishi natijasida korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish 25 foizga, kutilayotgan iqtisodiy samara esa 2 milliard so‘mdan ortiq bo‘lishi kutilmoqda.

Tahlil natijalari va aniqlangan zaxiralar soni asosida zaxiralarni safarbar qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, ya‘ni korxonaning ichki zaxiralarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish bo‘yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar rejalari tuzilmoqda.

Shunga qaramay, model tuzish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaxiralarini aniqlash yetarli emas, sanoat korxonasi samaradorligini oshirish strategiyasi doirasida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, uni rivojlantirishning izchil, ilmiy asoslangan mexanizmi zarur.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida respublika elektrotexnika sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini baholash va rag‘batlantirishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan, korxonalarda ishlab chiqarish salohiyatini rag‘batlantirish strategiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash usullarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Uchinchi bobda elektrotexnika sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini baholash va rag‘batlantirish uchun zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi aniqlangan, yoqilg‘i-energetika korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini baholash usullarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.


Sanoat korxonasi faoliyati samaradorligini yaxshilashga qaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan. Ushbu mexanizm korxonaning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida sanoat korxonasi faoliyati amaliyotida doimiy ravishda qo‘llanilishi mumkin.

Sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi strukturasi quyidagi elementlar tashkil qiladi:

1. Obyekt – sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyati (ICHS);
2. Maqsad – ICHS ni rivojlantirish;
3. Mexanizm mezonlari – sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatining ICHS elementlarining holati va rivojlanish darajasini monitoringini ta‘minlovchi ko‘rsatkichlar tizimi;
4. Boshqaruv subyektlari – ICHS elementlari;
5. Usullar – ICHS jalb qilish, foydalanish va ko‘paytirish;
6. Resurslar – tanlangan boshqaruv usuli amalga oshiriladigan va belgilangan maqsadga erishish ta‘minlanadigan moddiy va moliyaviy resurslar, ijtimoiy va tashkiliy imkoniyatlar (boshqaruv vositalari).

Shunday qilib, sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi ishlab chiqarish salohiyatini

oshirishning strategik maqsadiga bo'ysunadigan va umuman korxonani rivojlantirishning strategik va tezkor maqsadlariga erishishga, xususan, sanoat korxonasi faoliyatini samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan sanoat korxonasi umumiy boshqaruv tizimiga birlashtirilgan murakkab quyi tizimdir.



5-rasm. Ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning iteratsion mexanizmi¹¹

¹¹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Muallif tomonidan uning faoliyati samaradorligini oshirish strategiyasining bir qismi sifatida sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan (5-rasm).

Ushbu mexanizm sanoat korxonasi faoliyat samaradorligini oshirish strategiyasi doirasida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi, bu esa ularning qalin aloqalarini asoslab beradi:

1. Sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishning maqsadlari va asosiy yo'nalishlarini boshqaruv obyekti bilan, ya'ni uning elementlari bilan muvofiqlashtirishda sanoat korxonasi rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan strategiya doirasida belgilangan asosiy strategik maqsad va vazifalarga muvofiq shakllangan boshqaruv mexanizmining amal qilish davridagi maqsadni belgilash kerak, bu – umuman korxonasi samaradorligini oshirishdir;

2. Ishlab chiqarish salohiyati elementlari uchun mezonlar tizimini ishlab chiqishda turli: iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy va siyosiy omillarni hisobga olish kerak. Shunga qaramay, ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish mezonlari tizimining strukturasi va mazmunini belgilab beradigan asosiy omil uning shartliligi va korxonasi faoliyati darajasini nazorat qiluvchi mezonlar tizimiga bo'ysunishidir;

3. Strategiya korxonasi faoliyati samaradorligini monitoring qilishni va atrof-muhit omillarining ta'sirini baholashni nazarda tutadi, ishlab chiqarish salohiyatining hozirgi rivojlanish darajasini va undan foydalanish samaradorligini baholash uning elementlaridan biridir;

